

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

### №4 (2)

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari  
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB<sup>™</sup>  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX  
COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'İY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI .....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASSTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI .....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN .....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH .....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyeвна</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI .....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH .....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI .....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....	167
<b>Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARNING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLISH ISTIQBOLLARI .....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI .....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA) .....	188
<b>Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi</b>	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI .....	192
<b>Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura</b>	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI .....	203
<b>Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....	209
<b>Yusupov Farhod Adamboyevich</b>	
TASVIRLARDAN YO'L BELGILARINI TANIB OLISH ALGORITMLARI VA DASTURIY VOSITASINI ISHLAB CHIQISH .....	214
<b>Toyirov Akbar Xasanovich, Yuldoshov Abdurahmon Baxtiyorovich</b>	
OLIY TA'LIMNI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA .....	218
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	



# OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: SINGAPUR MISOLIDA

**Kurbanov Baxodir Negmatullayevich**

Tashkent International University

Mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Singapur oliy ta'limini moliyalashtirish tizimining asosiy modellari, mexanizmlari va strategik yo'nalishlari tahlil qilinadi. Singapur tajribasining o'ziga xos xususiyati — davlat tomonidan kuchli moliyaviy qo'llab-quvvatlash, fuqarolarning ta'lim olishiga yo'naltirilgan jamg'arma mexanizmlari (PSEA), universitetlarning endowment jamg'armalari, shuningdek, "Global Schoolhouse" strategiyasi doirasidagi xalqaro talabalarni jalb qilish siyosatidir. Maqolada moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan modeli, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va natijaga asoslangan moliyalashtirish elementlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, Singapur tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va cheklolari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'limni moliyalashtirish, Singapur tajribasi, endowment jamg'armalari, PSEA, Tuition Grant Scheme, Global Schoolhouse, avtonom universitetlar.

**Abstract:** This article analyzes the main models, mechanisms, and strategic directions of higher education financing in Singapore. The distinctive feature of the Singaporean experience is strong government financial support, savings mechanisms directed towards citizens' education (PSEA), university endowment funds, as well as the policy of attracting international students within the framework of the «Global Schoolhouse» strategy. The article provides a detailed examination of the diversified financing model, public-private partnership mechanisms, and performance-based funding elements. Furthermore, the possibilities and limitations of applying the Singaporean experience in the context of Uzbekistan are discussed.

**Keywords:** higher education financing, Singaporean experience, endowment funds, PSEA, Tuition Grant Scheme, Global Schoolhouse, autonomous universities.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные модели, механизмы и стратегические направления финансирования высшего образования в Сингапуре. Отличительной особенностью сингапурского опыта является сильная государственная финансовая поддержка, сберегательные механизмы, направленные на получение образования гражданами (PSEA), университетские эндаумент-фонды, а также политика привлечения иностранных студентов в рамках стратегии «Global Schoolhouse». В статье подробно рассматриваются диверсифицированная модель финансирования, механизмы государственно-частного партнерства и элементы результативно-ориентированного финансирования. Также обсуждаются возможности и ограничения применения сингапурского опыта в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** финансирование высшего образования, сингапурский опыт, эндаумент-фонды, PSEA, Tuition Grant Scheme, Global Schoolhouse, автономные университеты.

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish zamonaviy davlatlarning iqtisodiy o'sish, texnologik innovatsiyalar va raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy strategik omillaridan biri hisoblanadi. Resurslarning cheklanganligi sharoitida moliyaviy mexanizmlarni optimallashtirish, ularni iqtisodiy ehtiyojlar va inson kapitalini rivojlantirish maqsadlari bilan uzviy bog'lash muhim ahamiyatga ega. Janubi-Sharqiy Osiyoning kichik davlat bo'lishiga qaramay, Singapur dunyodagi eng rivojlangan, samarali va raqobatbardosh oliy ta'lim moliyalashtirish tizimlaridan birini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Tabiiy resurslarga ega bo'lmagan bu mamlakat inson kapitalini rivojlantirishni milliy taraqqiyotning asosiy ustuni sifatida belgilab, oliy ta'limni markazlashtirilgan siyosat, meritokratiya va iqtisodiy strategiyaga qattiq moslashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishgan.

Singapur oliy ta'lim moliyalashtirish modelining asosiy xususiyati — davlatning kuchli yetakchiligi bilan birga moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish va natijaga yo'naltirilgan yondashuvdir. Hukumat oliy ta'lim xarajatlarini YalMning taxminan 0,75 foizini tashkil etgan bo'lsa-da (ko'plab OECD mamlakatlariga nisbatan pastroq), bu mablag'lar yuqori sifatli ta'lim, global reytinglarda yetakchi o'rinlar va bitiruvchilarning yuqori bandlik darajasini ta'minlaydi. Bunday samaradorlik markazlashtirilgan siyosatni yuritish, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish va moliyaviy mexanizmlarni doimiy takomillashtirish hisobiga erishiladi.





Singapur modelining muhim afzalligi — oliy ta'limni milliy iqtisodiy strategiya (Smart Nation, green economy, raqamli transformatsiya) bilan uzviy bog'lashidir. Moliyalashtirishda meritokratiya va natijaga yo'naltirilganlik ustunlik qiladi: mablag'lar iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadigan yo'nalishlarga (AI, biotexnologiya, barqaror rivojlanish) ustunlik beriladi. Shu bilan birga, ijtimoiy inklyuzivlik ta'minlanadi — moliyaviy yordam tizimi kam ta'minlangan qatlamlarni qamrab oladi.

Singapur oliy ta'lim tizimi yuqori samaradorlik, moslashuvchanlik va iqtisodiy ehtiyojlarga aniq yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim turli ta'lim yo'nalishlari va institutsional shakllarni o'z ichiga olib, aholining turli qatlamlari va iqtisodiy sektorlar talablarini qondirishga qaratilgan. Tizimning asosiy tarkibiy qismlari avtonom universitetlar, politexnikumlar, Texnik ta'lim instituti, shuningdek, xususiy va xorijiy universitetlarning filiallari (private and branch campuses) hisoblanadi.

Har bir oliy ta'lim muassasasi o'zining ichki moliyaviy yordam sxemalarini shakllantirish va amalga oshirish huquqiga ega bo'lib, bu sxemalar institutning strategik maqsadlari, moliyaviy resurslari va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslanadi. Ushbu ichki moliyaviy yordam mexanizmlari talabalar uchun turli xil grantlar, stipendiyalar, bursalar, to'lovlarni kechiktirish yoki qisman bekor qilish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi va ularning mazmuni hamda hajmi donorlarning shartlari, mavjud mablag'larning miqdori, institutning moliyaviy siyosati va milliy ta'lim strategiyasining ustuvor yo'nalishlari kabi omillarga qarab sezilarli darajada farqlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Singapur oliy ta'lim tizimi va uni moliyalashtirish mexanizmlari so'nggi yigirma yil davomida xalqaro tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Kichik bir davlatning qisqa tarixiy davr ichida dunyoning eng raqobatbardosh ta'lim tizimlaridan birini yaratishi ko'plab ilmiy izlanishlarga sabab bo'lgan.

Gopinathan Singapur ta'lim siyosatini "state-led development" modeli nuqtayi nazaridan tahlil qilib, davlatning ta'lim tizimini iqtisodiy rivojlanishning asosiy vositasi sifatida qanday ishlatganligini ko'rsatadi. Uning xulosasiga ko'ra, Singapur davlati ta'lim tizimini doimiy ravishda o'zgaruvchan global iqtisodiy talablarga moslashtirib borgan [1].

Osiyo OTMLari bo'yicha ekspert S. Tan o'zining ilmiy ishlarida Singapur ta'lim tizimining asosiy xususiyatlarini — markaziy boshqaruv, uzoq muddatli rejalashtirish, sifatli o'qituvchilar tayyorlash va doimiy baholash tizimini — tahlil qiladi [2]. Muallifning ta'kidlashicha, Singapur ta'lim tizimining muvaffaqiyati uning "sistematik" va "eklektik" yondashuvida — turli mamlakatlarning eng yaxshi tajribalarini o'z sharoitiga moslashtirish qobiliyatidadir.

Bizningcha, Singapur ta'lim tizimining muvaffaqiyatini davlatning kuchli roli va uzoq muddatli strategik rejalashtirish bilan izohlash mumkin. Biroq, ushbu adabiyotlar asosan ta'lim tizimining umumiy tuzilmasiga qaratilgan bo'lib, moliyalashtirish mexanizmlarining chuqur tahlili kam uchraydi.

K. Olds o'zining ilmiy ishlarida Singapur OTMLari bo'yicha strategiyasining iqtisodiy samaradorligini baholaydi. Uning empirik tahlili shuni ko'rsatadiki [3], strategiya Singapurning global ta'lim reytinglaridagi mavqeini yaxshilagan bo'lsa-da, kutilgan iqtisodiy daromad (xalqaro talabalar xarajatlari, xorijiy investitsiyalar) kutilgan darajada bo'lmagan.

Sidhu talqiniga ko'ra, Singapurning global ta'lim markaziga aylanish ambitsiyasini tahlil qilib, strategiyaning asosiy ustunlarini belgilaydi [4]:

- yetakchi xorijiy universitetlarni jalb qilish,
- xalqaro talabalar sonini oshirish,
- ta'lim tizimining barcha darajalarini modernizatsiya qilish.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash, ilmiy abstraksiya hamda boshqa ilmiy-tadqiqot usullari keng qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Singapur oliy ta'lim moliyalashtirishining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

• Davlat blok grantlari va per capita moliyalashtirish — avtonom universitetlarga asosiy operatsion xarajatlarni qoplash uchun yillik blok grantlar ajratiladi. Bu grantlar talabalar soni, dastur turi va iqtisodiy ehtiyojlarga qarab differentsiatsiya qilinadi. Moliyalashtirishda hisobot berish va natijaviy ko'rsatkichlar (talabalar muvaffaqiyati, tadqiqot natijalari, innovatsiyalar) orqali accountability (javobgarlik) mexanizmi qo'llaniladi.


• Tuition Grant Scheme (o'quv to'lovlari subsidiyasi) — hukumat tomonidan subsidiyalash orqali talabalar uchun to'lovlar sezilarli darajada kamaytiriladi. O'rtacha hisobda ta'lim xarajatining 75 foizi davlat tomonidan qoplanadi: singapurlik talabalar uchun taxminan 25 foiz, doimiy yashovchilar uchun 35 foiz, xalqaro talabalar uchun esa subsidiyalı holatda 57 foizni tashkil etadi. Xalqaro talabalar uchun 3-yillik ish majburiyati belgilanishi mumkin. Bu mexanizm ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga xalqaro talabalarni jalb qilishga xizmat qiladi.

• Bursaries, scholarships va moliyaviy yordam dasturlari — kam ta'minlangan oilalardan chiqqan talabalar uchun bursaries (grantlar) va stipendiyalar kengaytirilmoqda. 2025-yilda MOE bir qator moliyaviy yordam sxemalarini takomillashtirdi, jumladan past daromadli oilalar uchun to'lovlarning 95–100 foizigacha subsidiyalashni ta'minladi. SkillsFuture tashabbusi doirasida kattalar va o'rta yoshdagi mutaxassislar uchun qo'shimcha subsidiyalar (70–90 foizgacha) joriy etilgan.

• Endowment jamg'armalari va xususiy donorlik — hukumat universitetlar tomonidan jalb qilingan xayriya mablag'lariga matching grants (moslashtirilgan grantlar) berish orqali endowmentlarni rivojlantiradi.

• Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish — Research, Innovation & Enterprise rejalar doirasida davlat katta hajmdagi mablag'larni ajratadi. Bu mablag'lar universitetlar, tadqiqot institutlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantiradi.

Singapur oliy ta'lim tizimining bu ko'p qatlamli tuzilishi turli o'quvchilar ehtiyojlarini hisobga olgan holda "multiple pathways" tamoyiliga asoslanadi. Bu yondashuv har bir fuqaroning qobiliyati va qiziqishlaridan kelib chiqib, akademik, amaliy yoki kasbiy yo'nalishni tanlash imkonini yaratadi, shu bilan birga butun tizimni milliy iqtisodiy strategiya bilan uzviy bog'laydi. Natijada, Singapur cheklangan resurslar sharoitida ham inson kapitalini samarali rivojlantirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlashga muvaffaq bo'lmoqda (1-rasm).



1 - r a s m .

#### Singapurda oliy ta'limni moliyalashtirishning asosiy manbalari<sup>1</sup>

Singapur hukumati oliy ta'lim muassasalarining asosiy moliyalashtiruvchisi hisoblanadi. Avtonom universitetlarning operatsion va kapital xarajatlari asosan davlat tomonidan qoplanadi. Hukumat, shuningdek, universitetlarga endowment jamg'armalarini shakllantirishda yordam berish uchun xayriyalarga mos keluvchi grantlar taqdim etadi.

Singapur oliy ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri — Tuition Grant Scheme hisoblanadi. Ushbu sxema doirasida:

- Singapur fuqarolari eng yuqori darajadagi subsidiyalarni oladi;
- Doimiy rezidentlar (PR) va xalqaro talabalar ham subsidiyalangan o'qish to'lovlaridan foydalanishi mumkin, biroq ular bitiruvdan keyin Singapur kompaniyalarida 3-yil ishlash majburiyatini oladi.

Ushbu mexanizm ikki tomonlama maqsadga xizmat qiladi: bir tomondan, iqtidorli xorijiy talabalarni jalb qiladi, ikkinchi tomondan, ularning Singapur iqtisodiyotiga hissa qo'shishini ta'minlaydi.

Singapurda fuqarolar, doimiy rezidentlar va xalqaro talabalar uchun o'qish to'lovlari keskin farqlanadi. Ushbu siyosat fuqarolarning imtiyozlari va majburiyatlarini aks ettirishga qaratilgan bo'lib, xorijiy talabalar uchun to'lovlar sezilarli darajada yuqori. Politeknikumlar va universitetlarda PR va xalqaro talabalar subsidiyalangan to'lovlarni qoplash uchun ta'lim kreditlaridan foydalanishlari mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotimizda Singapur oliy ta'limni moliyalashtirish tizimining asosiy modellari, mexanizmlari va strategik yo'nalishlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari Singapur tajribasining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Birinchidan, Singapur modelining asosiy ustunlaridan biri — davlatning kuchli moliyaviy roli. Singapur hukumati oliy ta'lim muassasalarining asosiy moliyalashtiruvchisi bo'lib qolmoqda, shu bilan birga universitetlarga keng avtonomiya berilgan. Davlat tomonidan taqdim etiladigan Tuition Grant Scheme fuqarolarning ta'lim olish

1 Manba: muallif ishlanmasi





imkoniyatlarini kengaytirish va xorijiy talabalarni jalb qilishning samarali mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi.

Ikkinchidan, Post-Secondary Education Account tizimi Singapur tajribasining o'ziga xos va innovatsion jihati hisoblanadi. Ushbu majburiy jamg'arma mexanizmi fuqarolarning ta'lim olish uchun moliyaviy resurslarni to'plashiga imkon yaratadi va ularni uzluksiz ta'lim olishga rag'batlantiradi. PSEA ning 2.5% lik foiz stavkasi va mablag'larni o'z yoki qarindoshlar ta'limiga yo'naltirish imkoniyati ushbu mexanizmning jozibadorligini oshiradi.

Uchinchidan, endowment jamg'armalari Singapur universitetlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Milliy Singapur Universitetining 15 milliard Singapur dollaridan ortiq endowment portfeli uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish va investitsion strategiyalarning samaradorligini ko'rsatadi. Endowment daromadlari stipendiyalar, ilmiy tadqiqotlar va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

To'rtinchidan, "Global Schoolhouse" strategiyasi qisman muvaffaqiyatsizlikka uchragan bo'lsa-da, Singapurning global ta'lim markaziga aylanish ambitsiyasi muhim saboqlar berdi. Xorijiy universitetlarni jalb qilish, xalqaro talabalar sonini oshirish va ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan ushbu strategiya Singapurning xalqaro maydondagi ta'sirini oshirdi, biroq kutilgan miqdoriy ko'rsatkichlarga erishilmadi.

Beshinchidan, Singapur tajribasini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari mavjud, ammo bosqichma-bosqich va moslashtirilgan yondashuvni talab qiladi. Xususan, endowment jamg'armalari to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish, fuqarolarning ta'lim jamg'armalarini shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish va xorijiy talabalar uchun subsidiyalari tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, Singapur va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy, institutsional va madaniy farqlarni hisobga olish zarur.

Umuman olganda, Singapur oliy ta'limini moliyalashtirish tizimi — davlatning kuchli roli, innovatsion jamg'arma mexanizmlari, endowment jamg'armalari va xalqaro talabalar siyosatining uyg'unlashgan modeli — dunyodagi eng samarali tizimlardan biri hisoblanadi. Kelgusida tadqiqotlar Singapur tajribasining O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modellarini ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilishi lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gopinathan, Saravanan. (2013). Education and the Nation State: The selected works of S. Gopinathan. Education and The Nation State: The Selected Works of S. Gopinathan. 1-224. 10.4324/9780203078815.
2. Tan, C. (2017). A Confucian Conception of Critical Thinking. Journal of Philosophy of Education, 51, 331-343. <https://doi.org/10.1111/1467-9752.12228>
3. Kris Olds, Global Assemblage: Singapore, Foreign Universities, and the Construction of a "Global Education Hub", World Development, Volume 35, Issue 6, 2007, Pages 959-975, ISSN 0305-750
4. Sidhu, R. (2008). Knowledge Economies: The Singapore Example. International Higher Education, (52). <https://doi.org/10.6017/ihe.2008.52.8024>
5. Heller D.E. The States and Public Higher Education Policy: Affordability, Access, and Accountability. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2001. — 304 p.
6. Altbach P.G., Salmi J. The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities. — Washington DC: World Bank Publications, 2011. — 346 p.
7. Chapman B., Higgins T. Income Contingent Loans: Theory, Practice and Prospects. — London: Palgrave Macmillan, 2013. — 268 p.
8. Kena G., Musu L., McFarland J. The Condition of Education 2022. — Washington DC: National Center for Education Statistics, 2022. — 420 p.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)